



ZULFIYA ISROILOVA SADOQAT KUYCHISI

Shamurotova Sunajon Odilbek qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti, o'zga tili guruhlarida o'zbek tili 1-bosqich talabasi

Bozorboyeva Gavhar Odil qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti, o'zga tili guruhlarida o'zbek tili 1-bosqich talabasi

Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti, o'zga tili guruhlarida o'zbek tili 1-bosqich talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8227136>

ARTICLE INFO

Received: 03th August 2023

Accepted: 08th August 2023

Online: 09th August 2023

KEY WORDS

Sog'inch, sevgi, sadoqat, or-nomus, she'r, she'riyat, adabiyot, vafo, ishonch.

ABSTRACT

Bu maqolada o'zbekning buyuk shoirasi Zulfiyaxonim hayot yo'llari va ijodi yoritib berilgan Zulfiyaxonim bahor elchisi, hijron, muhabbat, sadoqat kuychisi. Zulfiyaxonimni eslaganimizda ko'z o'ngimizda haqiqiy o'zbekning vafoli, sadoqatli ayoli gavdalanadi. Zulfiyaxonimning ijodi hozirgacha yosh-u qarining ko'nglidan birdek joy olgan. Ko'p she'rlari qo'shiq qilib ham kuylanadi. Zulfiyaxonim ijodining bunday natijaga erishishiga asosiy sabab u ham shoir ham rassom edi insonning qalbini chiroyli qilib chizadi va chiroyli ranglar bilan bezardi. Zulfiyaxonimning ijodiga Hamid Olimjonning o'rni katta bo'lgan u faqat umr yo'ldosh bo'lib qolmay, ham do'st ham ustoz edi. Umr yo'ldoshi vavfot etgach uning asosiy mavzusi hijron bo'ladi bu holatni tasvirlash uchun tabiatdan foydalangan. U endi faqat o'zi uchun emas balki sevgan yori uchun ham yashashi kerak edi. Ikki insonning irod yo'lini davom ettirish uchun ham har qanday qiyinchiliklarni sabr qilib yengadi. Har qanday vaziyatda ham sabr qilib irod bilan shug'ullanishni davom ettiradi va umr yo'ldoshi uchun ham yashaydi.

Sadoqat va vafo kuychisi Isroilova Zulfiya 1915-yil Toshkent viloyatida temirchi oilasida tug'iladi. Oldin boshlang'ich maktabni, keyin Xotin-qizlar bilim-yurtini tugatadi. Undan keyin O'zbekiston fanlar akademiyasining aspiranturasida o'qiydi va o'qishni tugatib turli nashriyotlarda ishlaydi. 1935-yildan 1980-yilgacha eng keng tarqalgan "Saodat" xotin qizlar jurnalida bosh muharrir bo'lib ishlaydi. Zulfiyaxonim o'zbek xalqining taniqli yozuvchisi Hamid Olimjon bilan turmush quradi, lekin ular uzoq va baxtli hayot kechiraolmaydilar. 1944-yilda orzulari endi barq urib gullayotgan bir pallada Zulfiyaxonimning "Hijron kunlarida" kitobi nashrdan chiqdi. Shundan keyin shoiraning hayotida haqiqatdan ham hijron kunlari boshlanadi. Kutilmagan avtohalokat natijasida umr yo'ldoshi, buyuk yozuvchi Hamid Olimjon bu dunyoni tark etadi. Bunday og'ir judolik Zulfiya Isroilovaga juda qattiq ta'sir ko'satadi.



Shundan keyin asosiy mavzusi ayriliq bo'ladi. 1944-yildan keyin yozgan she'rlari sog'inch, ayriliq mavzusi ustunli qiladi.

Hijroning qalbimda, sozing qo'limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam.
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham.

Zulfiyaxonimning bu mashhur satrlari "Bahor keldi seni so'roqlab" she'ridan olingan. Shunchalik og'ir musibatdan bir yil o'tib bunday go'zal she'r yozish uchun albatta juda ham katta kuch-qudrat kerak. Zulfiyaxonim shunday kuch-qudratni topa oldi.

Har bir shoirning yozgan she'rlari asarlari o'z hayoti bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Zulfiyaxonim ijodida hijron, sadoqat mavzusida yozilgan asarlar salmoqli o'rinni egallaydi. Inson qachon ijod qila oladi? Qachonki u chindan ham sevgi nima ekanini his qilsa, sevgini his qilmagan ijodkor mukamal va go'zal asarlar yozib bilmaydi. Sevgi sababli uning ko'ziga dunyo ham undagi narsalar ham go'zal ko'rinda boshlaydi. Sevgi bu haq-haqiqat yo'li unda yolg'on yo'q. Shoiraning qalbi ishqqa muhtalo bo'lgani uchun uning eng yaqin sirdoshi ham do'sti ham uning she'rlari bo'ladi.

Hamid Olimjon ham Zulfiyani juda ham yaxshi ko'rgan. Ular oila qurgandan keyin behad darajada hursand edilar. Zulfiyaxonimga atab

Eng gullagan yoshlik chog'imda
Sen ochilding ko'ngil bog'imda.
Shunda ko'rди ko'zim bahorni
Shunda qalbim tanidi yorni.

Hamid Olimjon ham o'z sevgani bilan birga behad hursand edi. Vatanimiz haqida juda ham chiroyli o'xshatishlardan foydalanib she'rlar yozgan. Shunday go'zal she'rlar yaratishiga sabab Zulfiyaxonimga bo'lgan muhabbati.

Baxtim borki, har narsa go'zal
Ko'rinadi mening ko'zimga.

Oradan qancha yillar o'tgan bo'lsa ham bunday shoir va shoirlar hayolimizdan hech qachon chiqmaydi. Ko'pchilik shoirlarning she'rlarini bir o'qiganda tushunamiz lekin Zulfiyaxonim she'rlarini qancha ko'p o'qisak shuncha yaxshi ma'nosini tushunamiz. Chunki u yozgan paytida qanchalik o'ylanib yozgan narsalarni bir o'qiganda tushunib bo'lmaydi. Bahor faslini juda ham yaxshi ko'rgan. Buyuk shoirimiz bahorni kuylar ekan o'zining holatini ham namoyon qilib beradi. O'zining boshidan o'tgan holalarni she'rlarga tushiradi va biroz yengil tortadi. Zulfiyaxonimning so'zga muhabbat uyg'onishiga asosiy sabab onasi chunki yoshligida unga qiziqarli rivoyat va ertaklar aytib bergan. Onasi oddiy ko'chaga chiqmagan ayol lekin shunchalik ko'p rivoyatlar aytardilar har kun aytsalar ham odamlarni hayajonlantirardi deydi shoir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Zulfiyaxonim nafaqat she'riyatda o'ziga xos o'ringa ega balki o'zbek ayoli sifatida ham muqaddas hisoblanadi. O'zbek adabiyoti XX asrda qanchalik mashaqqatli hayotni boshidan kechirgan bo'lsa ham, shunday vaziyatlarda ham bir qator tom ma'noli ijodkorlar yetishib chiqqan bo'lsa hamularning ichida Zulfiyaxonim o'z o'rniga ega bo'lgan shoirlardandir. Zulfiyaxonim hozirgi o'zbek xotin-qizlari uchun o'rnak bo'ladigan darajada. Chunki u mehnatsevarligi, har doim olg'a intilishi oila borasida sevgi, sadoqat va



vafoli yor ekanligi bilan boshqalarga o'rnak bo'lgan. Badiiy ijodda ham tinimsiz izlanuvchanligi, qiyinchiliklar oldida esankirab qolmasligi, yutuqlarga erishganda o'zini yo'qotib qo'ymasligi, har bir o'zbek ayoli uchun havas qiladigan darajadir.

References:

1. Naim Karimov G. Gulyama, 1983-yil
2. Qayumov L. Shoiri Zulfiya. Toshkent, O'zadabiynashr, 1965-yil
3. Mirvaliev S. O'zbek adiblari. Toshkent: Yozuvchi", 2000-yil
4. Tanlangan asarlar (3 jildli), Toshkent, 1985-yil